

## URUG‘LI CHIGITNI SAQLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**M.Mirzayeva** FarDU dotsenti

**M.Teshaboyeva** FarDU o‘qituvchisi

**A.Saminov** FarDU o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

O‘zbekistonda yetishtiriladigan g‘o‘za navlari tezpishar, serhosil, tola chiqimi yuqori, tola sifati yaxshi, chigiti moy va oqsil moddalarga boy, tashqi muhitning noqulay sharoitlariga chidamli bo‘lgan g‘o‘za navlarini yaratilmoqda. Paxtaning urug‘lik chigitlarini saqlash jarayonlari ham yangi texnologiyalar asosida olib borilmoqda.

**ABSTRACT-** Cotton varieties grown in Uzbekistan are fast-ripening, fertile, high fiber yield, good fiber quality, rich in oil and protein, and resistant to adverse environmental conditions. Cotton seed storage processes are also carried out on the basis of new technologies.

### KIRISH

Paxtachilikda paxta hosilini samaradorligini ko‘tarish, paxtadan olinayotgan mahsulotlarning miqdori va sifatini oshirish paxta urug‘chiligi hamda tayyorlanayotgan urug‘lik chigitning sifatiga bog‘liq. “O‘zpaxtasanoat” xolding tomonidan urug‘lik chigit sifatini oshirish maqsadida yangi texnologiya va uskunalar yaratish, ularni paxta tozalash zavodlarida joriy etishga katta ahamiyat berilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib qo‘lda terib olingan paxtaning urug‘lik chigitini saqlash usullarini takomillashtirishni o‘rganish maqsadida ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi.

O‘zbekistonda yetishtiriladigan g‘o‘za navlari tezpishar, serhosil, tola chiqimi yuqori, tola sifati yaxshi, chigiti moy va oqsil moddalarga boy, tashqi muhitning noqulay sharoitlariga chidamli (tuproqning sho‘rlanishi, past harorat, garmsel, qurg‘oqchilik va boshq.) shuningdek, kasallik va zararkunandalarga chidamli, agrotexnik tadbirlardan samarali foydalanadigan, qator oralarini ishlashni mexanizatsiyalashga, mashina terimiga moslashgan hamda boshqa qimmatli xo‘jalik belgilar va xususiyatlarga ega bo‘lishi talab qilinadi.

Paxtachilikda kelgusi yili ekiladigan urug‘liklarning sifatli bo‘lishi ularni dalada terib olish muddatlari. Terim mavsumining qay darajada tashkil etilganligi, saqlash jarayonlariga va ekishga tayyorgarlik ishlarining qay darajada Davlat standart talablariga mos xolda olib borilishiga bog‘liqdir.

## TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Tolasining sifati bilan ajralib turadigan va hosildorligi yuqori bo'lgan "Sulton" g'ozga navi muhit o'zgarishlariga moslashuvchanligi boshqa navlarga nisbatan yuqori bo'lganligi uchun joriy yilda, ushbu nav Qoraqalpog'iston respublikasi, Andijon, Samarqand, Surxondaryo, Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida 20-50 foiz maydonlarga ekish mo'ljallangan.

Paxta seleksion, sanoat navlari va sinflari bo'yicha maxsus ochiq maydonchalarda usti brizent bilan yopilgan g'aramlarda va usti yopiq omborlarda maxsus tartibda saqlanadi.

Djabborov G. D., Baltaboyev S.D. olib borgan tadqiqot natijalariga ko'ra, qayta ishlanayotgan chigitli paxtaning navdorligi o'zgarishi bilan chigitning tola qoldig'i ham o'zgaradi. Buning uchun toladan tozalangan chigitlar vibratsiyalanuvchi to'r ustidan oqib o'tadi. To'r teshigidan talab darajasida tozalangan chigit tushib ketadi. Tola qoldig'i 0,12-0,19 % bo'lgan va 12 % namlikdagi chigitlar qaytadan tozalanishga to'r ustida qolib ketadi. Bundan ko'rinib turibdiki yaxshi quritilmagan chigitlar saralash jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xodjiyev M.T., Tadjiyev U.S., Mubarakov A.Y. (1999) ma'lumotlariga ko'ra paxtani qayta ishlaydigan paxta zavodlari va punktlarida xo'jaliklardan qabul qilib olingan paxtalar turli usullarda hamda sharoitlarda saqlanadi. Paxtalar buntlarda, omborlarda va usti yopiq shiypon tagidagi omborlarda qishning turli namgarchilik sharoitlarida saqlanishida ma'lum darajada namni o'ziga tortib oladi. Bunda nam muhit paxta tolasiga va chigitiga (ayniqsa urug'lik chigitga) salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday holat o'z navbatida mahsulot sifatining yomonlashuviga olib keladi. Namlik oshib, haroratning o'ta tushib yoki ko'tarilib ketishi chigitning sifatini buzishi, uning unuvchanligi, miqdorligiga, shuningdek, tola sifatining yomonlashuviga sabab bo'ladi. Ayniqsa urug'lik chigitlar yopiq omborlarda saqlanishi zarur bo'lsada, shunday omborlarning yetishmasligi sababli ikkinchi va uchinchi avlodli urug'lik paxtalar va chigitlar g'aramlarda ham saqlanadi.

Mirahmedov S. M. va boshqalar (1989) urug'lik chigitning namligi katta amaliy va xo'jalik ahamiyatiga ega. Namligi yuqori bo'lgan chigitning unuvchanligi kamayib, saqlash davrida chiriydi. Urug'lik chigitning O'rta Osiyoda 10% dan ortiq bo'lmasligi lozim. Urug'lik chigitlar namligi, unuvchanligi va boshqa sifat ko'rsatkichlariga qarab uch sinfga bo'linadi: birinchi sinf chigitlarning unuvchanligi kamida 95%, ikkinchi sinf-90%, uchinchi sinf-85% bo'lishi kerak. Ekish uchun unuvchanligi 85% dan kam bo'lgan urug'lar yaroqsiz hisoblanishi haqida aytib o'tilgan.

### XULOSA

Olib borilgan kuzatishlar natijasida olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, chigitning saqlanish muddati ortib borgan sari va qizishi natijasida undagi oqsilning

ham ma'lum darajada kamayishi kuzatildi, bir yillik chigitda oqsilning miqdori o'rtacha 2-3% ga kamaygan bo'lsa, ikki yillik chigitlarda bu ko'rsatgich 5% ni tashkil qilganligi aniqlangan. Paxta tozalash zavodlarida tolasi ajratilgan chigitlar rezervuarlarga yig'ilib 1-4 oygacha saqlanadi. Saqlash davrida asosan harorati bir xilda o'lchab turiladi. Urug'lik chigit oldin olov va so'ng 96% oltingugurt kislotasi bilan tuksizlantiriladi. Paxtadan olinadigan tola, lint va tolali chiqindi toylari bostirmalarda ustma-ust taxlab saqlanadi, agar maxsus bostirmalar bo'lmasa, toylar ostiga yog'ochlar qo'yib taxlanadi, usti brezent bilan yopilgan holda saqlanadi. Olib borilgan tajriba natijalariga ko'ra yopiq holatda saqlangan paxta tolasi ochiq holda saqlanganiga ko'ra 3,7-4,3% gacha bo'lishi kuzatildi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. П.П.Посыпанов и др.-Растениеводство.М.Колос. 1997
- 2.Х.Аtabayeva.,О.Qodirxo'jayev.О'simlikshunoslik. Yangi asr avlodi T.2006
- 3.YE.T.Shayxov va boshqalar Paxtachilik. T.Mehnat.1990.
4. Arashova, G. A., & Mirzayeva, M. R. (2012). Судорожный синдром с перинатальным поражением нервной системы у детей раннего возраста. Проблемы биологии и медицины, 1, 157.
5. Мирзаева М., Адилханова А. Формирование микрофлоры кишечника у новорожденных в экологически неблагоприятном регионе республики Узбекистан //Журнал проблемы биологии и медицины. – 2014. – №. 3 (79). – С. 126-126.
- 6.Teshaboyeva M., Vaxobova N., Akmaljonova M. MAHALLIY KUZGI YUMSHOQ BUG 'DOY NAVLARI DON TARKIBIDA TEMIR MIQDORINING AAS TAHLILI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. D7. – С. 570-574.
7. Teshaboyev, N., Teshaboyeva, M., Sheraliyeva, Z., & Xoliqova, O. (2022). KUZGI BUG 'DOYNI ASRNAVI HOSILDORLIGIGA URUG 'EKISH MUDDATLARINI TA'SIRI. Science and innovation, 1(D7), 122-125.